


**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**  
**“Ободонлаштириш бошқармаси**  
**бошлик уринбосари, комиссия раиси**



**Т.Чутбоев**

Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида  
Самарканд шаҳар мавжуд фаввораларни жорий таъмирлаш ишларининг  
лойиха-смета хужжатларини тайёрлаш ишлари буйича ташкилотлар  
ўртасида танлов ўтказиш бўйича комиссия йиғилиши

**БАЁНИ**

Самарканд шаҳри

«8» июл 2022 й.

Раислик қилувчи

Т.Чутбоев

Иштирок этган комиссия аъзолари:

Ж.Саидов

Комиссия аъзоси, Бош муҳандис в.в.б

М.Мусинов

Комиссия аъзоси, Булим бошлиги

Ж.Бабаев

Комиссия аъзоси, Булим бошлиги

Ш.Сохибназаров

Комиссия аъзоси, булим бошлиги

Т.Эгамуратов

Котиб, бош ҳисобчи

**КУН ТАРТИБИ:**

Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида  
Самарканд шаҳар мавжуд фаввораларни жорий таъмирлаш ишларининг  
лойиха-смета хужжатларини тайёрлаш ишлари.

---

(Т.Чутбоев, Ш.Сохибназаров, Ж.Бабаев, Т.Эгамуратов)

Бошқарма томонидан 2022 йил 06 апрелда Ўзбекистон Республикаси  
Товар ва хом-ашё биржасининг электрон порталига Самарканд шаҳар  
ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Самарканд шаҳар  
мавжуд фаввораларни жорий таъмирлаш ишларининг лойиха-смета  
хужжатларини тайёрлаш ишлари № 115857-лот рақами билан эълон  
жойлаштирилди., Мазкур лот бўйича 2022 йил 8 июлдаги энг яхши  
таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари  
комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган Самарканд шаҳар  
ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида бошқарма томонидан

Самарканд шаҳар мавжуд фаввораларни жорий таъмирлаш ишларининг лойиха-смета ҳужжатларини тайёрлаш ишлари буйича баённомасига асосан эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан "SAMARQANDFUQAROLOYIHA" МСНҲ корхонаси голиб деб топилганлигини инобатга олиб:

### ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги "Давлат харидлари тўғрисида"ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома буйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Бошқарма бош бухгалтери Т.Эгамуратовга:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 08 июлдаги электрон баённомасига асосан голиб "SAMARQANDFUQAROLOYIHA" МСНҲ корхонаси билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

3. Бошқарма бош муҳандиси в.в.б Ж.Саидов Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Самарканд шаҳар мавжуд фаввораларни жорий таъмирлаш ишларининг лойиха-смета ҳужжатларини тайёрлаш ишларининг сифат даражаси назорат қилинсин.

### Комиссия аъзолари

Комиссия аъзоси, Бош муҳандис в.в.б		Ж.Саидов
Комиссия аъзоси, Булим бошлиги		М.Мушинов
Комиссия аъзоси, Булим бошлиги		Ж.Бабаев
Комиссия аъзоси, булим бошлиги		Ш.Сохибназаров
Котиб, бош ҳисобчи		Т.Эгамуратов

## XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI №50

Samarqand.

16.07.2022 y.

"SAMARQANDFUQAROLOYIHA" MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi U.Ortikov nomidan, bir tomondan va Obodonlashtirish boshkarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar Yu.Yu.Bobonazarov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur kontrakt bo'yicha "Buyurtmachi" xizmatlarni qabul qilish va to'lash, "Xizmat ko'rsatuvchi" esa Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha Samarqand shahrida mavjud favvoralarni joriy ta'mirlash ishlarining loyixa-smeta xujjatlarini tayyorlash ishlari bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi.

1.2. Kontraktning umumiy summasi QQS bilan 37249000 (O'ttiz yetti million ikki yuz qirq to'qqiz ming) so'mni tashkil qiladi.

### II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorini oldindan to'laydi, qolgan 70 % miqdorini ishlar bajarilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolanganidan keyin 10 (o'n) kun ichida to'lovni amalga oshiradi.

2.2. Xizmat ko'rsatish yakunlangandan keyin "Xizmat ko'rsatuvchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim etadi

2.4. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 10 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Xizmat ko'rsatuvchiga"ga yuboradi.

2.4.Rad qilingan holatda, ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchilikliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'rtasida dalolatnoma tuziladi

### III. KONTRAKTNING BAJARILISHI

3.1. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va kontrakt talablari va shartlariga muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Kontrakt shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki kontrakt shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida o'rnatilgan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan avval ko'rsatilinishi mumkin.

3.5. Ko'rsatilgan xizmatlar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar miqdori va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi

### IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Ko'rsatilgan xizmatlarni tanlab olmaslik, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni xizmatlari ko'rsatganda, xizmatlari qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, xizmat ko'rsatuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlar bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

**4.3. Xizmat ko'rsatuvchi:**

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan xizmatlarni ko'rsatish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalar shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi..

4.4. Agar ko'rsatilgan xizmatlar standartlar, sifati, texnik shartlar, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, xizmat ko'rsatuvchidan sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar ko'rsatganligi uchun jarima xizmat ko'rsatuvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Xizmatlarni ko'rsatish muddati o'tkazib yuborilgan yoki ko'rsatilmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshiga so'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni kontraktni tegishli tarzda bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

#### ***V. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI***

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar xo'jalik sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

#### ***VI. FORS-MAJOR***

6.1. Ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqqan va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etgan hollarda Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarning mavjudligiga ko'ra tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

#### ***VII. BOSHQA SHARTLAR***

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

#### ***VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI***

8.1. Мазкур контракт фазначилик бўлинмаларида мажбурий рўйхатга олинган вақтдан кучга киради ва 2022 й. "31" декабргача амал қилади.

8.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin.

Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

#### ***IX. KORRUPSIYA GA QARSHI TALABLAR.***



9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

9.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsion xavf-xatar barataraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlari- ni buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

X. Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

<p style="text-align: center;"><i>Bajaruvchi:</i></p> <p>"SAMARQANDFUQAROLOYIHA" MCHJ          Manzil: Samarqand sh., Buyuk ipak yo'li 69a uy          H/R: 2021 0000 3003 0875 1001          STIR: 200714996          IFUT:          Bank: AKB HAMKORBANK          Samarqand viloyat filiali          MFO: 01030          Telefon: 915554717</p>	<p><i>Tashkilot nomi: Obodonlashtirish boshqarmasi</i>          Manzil: Chuqur yo'l ko'chasi 21 uy          Tel.: _____          Faks: _____          STIR kodi 204858743          OKONX 90211          sh/h: 100022860184017065100110042          G'aznachilik bo'linmasi nomi : Samarqand shahari          bo'yicha g'aznachilik bo'linmasi          Yagona G'aznachilik hisobvaraqa lari          :23402000300100001010          Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shahar bosh          boshqarmasi          XKKM _____          MFO: 00014 _____          G'aznachilik bo'linmasi INNi : 201122919</p>
<p>Direktor  U. Ortikov</p>	<p>Rahbar :  Yu. Bobonazarov</p>





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI**  
**SAMARQAND SHAHAR YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**

170800, Samarqand shahar, Kurchatov ko'chasi, 9-uy,  
tel.: (998 66) 233 34 37, el.pochta: Samarqandyurmarkazi@mail.ru

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN**  
**HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

"SAMARQANDFUQAROLOYIHA" MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi U.Ortikov nomidan, bir tomondan va Obodonlashtirish boshkarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar Yu.Yu.Bobonazarov nomidan, ikkinchi tomondanbirgalikda "Tomonlar" deb ataladi, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish to'g'risida.

Samarqand shahar Obodonlashtirish boshkarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi Yu.Yu. Bobonazarov hamda "SAMARQANDFUQAROLOYIHA" MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi U.Ortikov bilan 19.07.2022-yilda tuzilgan № 50 sonli shartnoma.

Kontraktning umumiy summasi QQS bilan 37.249.000 (O'ttiz yetti million ikki yuz qirq to'qqiz ming) so'mni tashkil qiladi.

Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi qonuni hamda "Davlat xaridlari to'g'risida" gi qonun talablariga muvofiq tayyorlangan.

Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 18.07.2022-yil tizimga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Samarqand shahar**  
**Yuridik xizmat ko'rsatish**  
**Markazi Bosh yuriskonsulti**



2022-yil 19-iyul

**U.Xudayqulov**





O'zbekiston Respublikasi  
Samarqand shahar hokimligi

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida

# GUVOHNOMA

Reestrda tartib raqami – 492  
2004 yil 30 Aprel

№ 00400

Mazkur quvohnoma yuridik shaxs «SAMARQANDFUQAROLOYIXA»  
mas'uliyati cheklangan jamiyatiga berilgan.  
(o'zbek tilidagi to'liq nomi)

Tashkiliy - huquqiy shakli  
Mulksilik shakli  
Pochta manxili  
Yuridik shaxs kodi  
Tarmoq kodi  
Soliq to'lovchining identifikasiya raqami  
Qo'shimcha ma'lumotlar:

THSH
1152
MSh
142
MHOBT
1718401
KTUT
14970724
XXTUT
66000
STIR
200714996

Inspeksiya boshliq'i



SH.Xusanov



№ 6873-775f-09fc-0845-bb75-0843-3235  
Хужжат яратилинган сана: 2020-07-11  
Ариза рақами: 20073865

Хужжат берилган: SAMARQANDFUQAROLOYIXA  
МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТИ  
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 200714996

## Архитектура-шаҳарсозлик хужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун ЛИЦЕНЗИЯ

SAMARQANDFUQAROLOYIXA МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТИ га объектларнинг мураккаблик тоифалари классификатори бўйича III тоифадаги объектлар учун куйидаги: Тўлиқ комплексда лойиҳалаш бўйича фаолият турлари. А гуруҳи Қишлоқ хўжалиги қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета хужжатларини яратиш, шу жумладан уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш, Сув хўжалиги қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета хужжатларини яратиш, шу жумладан уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш, Энергетика қурилиши ва алоқа объектлари ва комплексларини лойиҳалаштириш, шу жумладан уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш Уй-жой-хўжалик қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета хужжатларини яратиш, шу жумладан уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш, Саноат қурилиши учун объектлар ва комплекслар лойиҳа-смета хужжатларини яратиш, шу жумладан уларнинг муҳандислик тармоқлари ва тизимларини лойиҳалаштириш, фаолият тур(-лар)и билан шугулланишга лицензия берилди.

Лицензия берилган сана: 11-07-2020 йил

Лицензия рақами: АЛ-001258

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 200714996

Юридик шахснинг почта манзили: ИПАК ЙУЛИ КУЧАСИ 69-А УЙ

Лицензия амал қилиш муддати чекланмаган.

ТУРСУНОВ АСКАР ШЕРАЛИЕВИЧ

Мазкур хужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисидаги низога мувофиқ шакллантирилган электрон хужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон хужжатнинг нусхасида кўрсатилган маълумотлар тўғрисидаги текшириш учун [govo.gov.uz](http://govo.gov.uz) веб-сайтига ўтинг ва электрон хужжатнинг ноёб рақамини киритинг ёки мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг. Диққат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ электрон хужжатлардаги маълумотлар қонуний ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон хужжатларнинг нусхаларини қабул қилишни рад этишлари қатъиян таъқиқланган.

2190

